

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xo‘shboqov Kamoliddin Abdulatif o‘g‘li Termiz davlat pedagogika instituti  
o‘qituvchisi

Email:kamolxoshboqov1995@gmail.com

**Anotatsiya:**Maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlari, xarakter xislatlarining namoyon bo‘lishi, mustaqil faoliyatining rivojlanishi, qiziquvchanlikning ortishi, intellektual salohiyatning o‘sib borishi ,shaxs sifatida shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha yosh, individual xususiyatlar, axloqiy sifatlar, qiziqish, ehtiyojlar, muloqot, shaxsiy va ishbilarmonlik motivlari, taqlidchanlik.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (insoniy fazilatlarini) tarkib topa boshlaydi. Olimlarning fikricha, insonning maktabgacha yoshdagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday harakter hislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va ahloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Bola maktabgacha yoshga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma‘lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari bog‘chaga tarbiya yoshidagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, maktabgacha yoshidagi bolalar bilan bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar ta‘lim- tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.Maktabgacha yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola maktabgacha yoshiga etgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama harakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa harakterliki, kichik maktabgacha yoshidagi bola doimiy yordam va g‘amxo‘rlik talab qiladigan ob’ektdan sekin-astalik bilan oila holida bog‘cha bolalar guruhining faol a‘zosiga aylana boshlaydi. Demak, bu davrdan boshlab, muxtojlikdan qutilib, o‘zi ham boshqalarga ma‘lum darajada yordam bera oladigan, o‘zining burchi, vazifalari, qiziqishlari hamda xilma-xil ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxsga, jamoa a‘zosiga aylana boshlaydi.

Maktabgacha yosh davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat‘iylasha

boradi. Axloqiy tushunchalar manbai bo‘lib ularning ta‘lim –tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat xususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda kata bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu –bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir.

Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egalash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi. O‘zini ko‘rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motiv asosan bolalarning syujetli–rolli o‘yinlarda asosiy rolni egallashga boshqalar ustidan raxbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo‘rqmasligida nima bo‘lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xa- rakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi<sup>1</sup>.Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda maishiy axloq norma va qoidalarni, o‘z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomila qilish normalarini egalaydilar. Bunday normallarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o‘zlashtirish uchun syujetli–rolli o‘yinlar yordam berishi mumkin. Bog‘cha yoshining oxirlariga kelib, ko‘pchilik bolalarda aniq bir ahloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqatli, mexribon bo‘lish xususiyatlarini shakllanib, rivojlana boshlaydi.

Katta yoshdagi bolalar ko‘p xollarda o‘z xatti –harakatlari sababini tushuntirib bera oladilar. 3–3,5 yosh oralig‘ida o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan ularning o‘zlariga beradigan baholari asosida bo‘ladi. 4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4 –5 yoshli bolalar xali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o‘zlari xaqida ma‘lum bir hulosani bera olmaydilar. O‘z –o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha yoshidan boshlab rivojlanib avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?», «Men katta bo‘lganimda qanday

---

<sup>1</sup> Z.T.NISHANOVA, N.G.KAMILOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018, 248-b

bo‘laman?» singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa shu singari qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo‘lishiga harakat qiladilar.

Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti–harakatlarni, tilni , odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab, bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri ekanligi bilan karakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir.

Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin:

bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so‘zlardan bog‘cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo‘lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki , Maktabgacha davr insonning butun hayoti davomidagi eng muhim , shaxs sifatida kamol topishida eng muhim bosqich va muhim davr hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda bolaning mustaqil hayotga qadam qo‘yuvchi, intellektual salohiyati har tomonloma shakllanuvchi, qiziquvchanligi va ehtiyojlari yana ham ortib borishi , har tomonloma yuksaluvchi eng muhim davrdir. Bilish jarayonlari ham shakllanib va rivojlanib boradi va bu davrda bolaning psixologik xususiyatlari har tomonloma shakllanuvchi davrdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Z.T.NISHANOVA, N.G.KAMILOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA. Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018, 248-b
- 2.Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
- 3.Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>

- 4.Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
- 5.Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИННГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
- 6.Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
- 7.Ashurova, S. (2023). SOG‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
- 8.Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.
- 9.Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2023). OILADAGI IJTIMOY PSIXOLOGIK MUHITNING BARQARORLIGI TA‘MINLASHDA QAYNONA VA KELIN MUNOSABATLARINING O‘RNI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8259>
- 10.Eshmurodov, O. (2023). OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLASHSHUVIDA MILLIY QADRIYATLARINING ANAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8238>
- 11.Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
- 12.Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7431>
- 13.Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
- 14.Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>

15. Нарбашева, М. А. (2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
16. Ashurova, S. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
17. Ashurova Sh.F. A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION . Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL). 2022.  
<https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
18. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
19. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
20. Жабборов Хазрат Хусенович. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. **Таълим ва инновацион тадқиқотлар образoвание и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал. ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH № 9, 2022 сентябр. Б. 270-283**
21. Хазрат Хусенович Джабборов Социально-психологические индикаторы национального воспитание. **Science and education scientific journal** ISSN 2181-0842. Volume 3, Issue 3. March 2022. Page 1082-1089.  
<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2883>
22. Kh.Kh. Jabborov. The study of the problem of national education by eastern thinkers. **International Journal of Pedagogics** (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:-  
<http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
23. Botirova Dilafruz Bozorovna International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –В 1838-1843.  
<https://www.scopus.com/sourceid/21101016918/>
24. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.
25. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>

- 26.Mardonov, E. (2023). O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISH JARAYONI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8472>
27. Baxtiyorov, R., Botirova, D., & 3Jo‘rayeva , M. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDA MULOQOTCHANLIK ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8471>
- 28.Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8470>
- 29.Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
- 30.Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innovacje., 20, 49-51.
31. Eshmuradov, O., & Ismoilova, G. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA’RBIYASIGA TA’SIRI ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. Science and innovation, 1(B4), 201-205.
- 32.Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
- 33.M. A. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
33. O. Eshmuradov, & G. Ismoilova (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA’RBIYASIGA TA’SIRI ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. Science and innovation, 1 (B4), 201-205. doi: 10.5281/zenodo.6902544
- 34.Kamolova, Shirin Usarovna, & Axmedova, Fotima Xurramovna (2022). SOG‘LOM SHAXS HAYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O‘RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 630-636.
- 35.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O‘TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O‘SMIRLAR KELIB CHIQISHIGA TA’SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 36.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 37.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING

PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.

38.Norbekova, B. (2022). O‘roqboyeva M. Maktabgacha ta ‘limda psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari, 1(1), 481-483.

39.Norbekova, B. (2021). Socio-Psychological Characteristics of National Character. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed*, 7(1).

10.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109.

41.Норбекова, Б. (2021). Духовно-нравственный образ семьи. *Общество и инновации*, 2(2/S), 123-128.

42.NORBEKOVA, B. (2021). Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations.

43.Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*.

44. Yo‘ldoshyev, S., & Jo‘lmurodov , O. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK QADRIYAT SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 3-7. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8481>

45.Yo‘ldoshyev, S., & Fayzullayeva, M. (2023). STRESSNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 8-14. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8482>

46.Yo‘ldoshyev, S., & Otaqulova, S. . (2023). SHAXSDA QOBILYATLAR RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8473>

47.Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8393>

48.Yo‘ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O‘QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8389>

49.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.

50.Мажидов, Ж. Б. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ШАХСНИ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШИ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК МУАММОЛАРИ. *Ученый XXI века*, (5-2 (86)), 19-24.